



EPIDEMIOLOGICAL SPREAD OF BREAST CANCER IN THE TERRITORIES OF FERGANA REGION

Parpiyeva Odinakhan Rakhmanovna

Associate Professor, International Medical University

"Central Asian Medical University".

e.mail: parpieva.odinahon@yandex.ru,

ORCID: 0000-0001-6223-103X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14038694>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2024

Accepted: 30th October 2024

Online: 31th October 2024

KEYWORDS

Breast cancer, morbidity and mortality, menopause, breast cancer screening, palliative care.

ABSTRACT

Breast cancer is one of the leading causes of death among oncological diseases in Uzbekistan, but if detected at an early stage, it can be completely cured. This article presents studies of breast cancer incidence in the Fergana region in 2020, its regional distribution and results, epidemiological features of the disease, as well as recommendations for the prevention of breast cancer.

ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКОЕ РАСПРОСТРАНЕНИЕ РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ НА ТЕРРИТОРИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Парпиева Одинахан Рахмановна

Доцент и.о. Международного медицинского университета

« Central Asian Medical University ».

e.mail: parpieva.odinahon@yandex.ru,

ORCID: 0000-0001-6223-103X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14038694>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2024

Accepted: 30th October 2024

Online: 31th October 2024

KEYWORDS

Рак молочной железы, заболеваемость и смертность, менопауза, скрининг рака молочной железы, паллиативная помощь.

ABSTRACT

Рак молочной железы является одной из ведущих причин смертности среди онкологических заболеваний в Узбекистане, но при обнаружении на ранних стадиях его можно полностью вылечить. В данной статье представлены исследования заболеваемости раком молочной железы в Ферганской области в 2020 году, ее региональное распространение и результаты, эпидемиологические особенности заболевания, а также рекомендации по профилактике рака молочной железы.

KO'KRAK BEZI SARATONING FARG'ONA VILOYATI HUDUDLARI KESIMIDA EPIDEMIOLOGIK TARQALISHI

Parpiyeva Odinoxon Raxmanovna

"Central Asian Medical University" Xalqaro tibbiyot universiteti dotsent v.b.

e.mail: parpieva.odinahon@yandex.ru,

ORCID: 0000-0001-6223-103X



ARTICLE INFO

Received: 26th October 2024

Accepted: 30th October 2024

Online: 31th October 2024

KEYWORDS

Ko'krak bezi saratoni, kasallanish va o'lim darajasi, menopauza davri, ko'krak bezi saratoni skriningi, palliativ yordam.

ABSTRACT

Ko'krak bezi saratoni O'zbekistonda saraton kasalliklari orasida o'lim ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi, biroq uni erta bosqichlarda aniqlanganda to'liq davolash mumkin. Ushbu maqolada Farg'ona viloyatida 2020 yilda ko'krak bezi saratoni bilan kasallanish, uning hududlar kesimida tarqalishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot va uning natijalari, kasallanishning epidemiologik xususiyatlari va ko'krak bezi saratonini oldini olish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kirish. O'sma kasalliklari nafaqat respublikamizda, balki butun dunyo miqyosida murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida onkologik kasalliklarga chalinish ko'rsatkichlari o'shib borayotir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2030 yilda butun dunyoda o'sma xastaliklari bilan 15 million kishi kasallanishi mumkin. Yurtimizda yiliga 22 mingdan ortiq bemorlarda onkologik xastalik aniqlanayotgani, o'z navbatida, mazkur kasallikka qarshi kurashish tizimining takomillashtirilishi, yangi normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, uni moliyalashtirish manbalarining aniq belgilanishini taqozo etmoqda.

Dunyoda fan va amaliyotning taraqqiyoti, sog'liqni saqlash va insonlar salomatligini muhofaza qilish tizimining rivojlanishi natijasida onkologiya sohasida, birinchi navbatda, birlamchi bo'g'inlarda profilaktika hamda tibbiy xizmat ko'rsatish sifati darajasini oshirish bilan bog'liq bir qator o'z yechimini kutayotgan masalalar mavjud.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish tibbiy tizimni jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, onkologik kasalliklarni erta tashxislashda to'g'ri maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda "...birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash..." kabi vazifalar belgilangan.

Tadqiqotning maqsadi:


Ko'krak bezi saratoni kasalligining epidemiologik xususiyatlarini o'rganish, ko'krak bezi saratoniga chalingan ayollarning ovqatlanishini korreksiyalash orqali uning profilaktikasini takomillashtirish va tavsiyalar berish.

Materiallar va metodlar. RIO va RIATM Farg'ona viloyat filialiga 2020 yilda Farg'ona viloyatida istiqomat qiluvchi ayollarning murojaatlari va ko'krak bezi saratoni bilan kasallanishlarini hisobga olish materiallari olingan. Hududiy miqosda birlamchi hujjatlarni kuzatish, tahlil qilish, tumanlar/shaharlar kontekstida ko'krak bezi saratoni bilan kasallanishlarni tahlil qilish orqali standartlashtirilgan ko'rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot ishining bajarilishida epidemiologik va tibbiy-statistik usullardan foydalanildi

Hozirgi vaqtda onkologik kasalliklar odamlar salomatligiga bevosita ta'sir etishi bilan xarakterlanadigan asosiy tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga asosan, dunyoning barcha davlatlari kabi, O'zbekistonda ham onkologik kasalliklarning o'sishi kuzatilgan. Butun dunyo bo'yicha har yili 16 million atrofida saratonning yangi holatlari aniqlanmoqda. Ko'krak bezi saratonini oldini olish va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun avvalambor shu kasallikning tarqalganlik darajasini bilish darkor. Shunga asosan biz, Farg'ona viloyati hududlarida ko'krak bezi saratonini tarqalganlik holatini o'rganib chiqdik (1-diagramma).

1-diagramma


2020-yilda tibbiy kuzatuv uchun olingan ko'krak bezi saratoniga chalingan bemorlar



2020-yilda tibbiy kuzatuv uchun olingan 356 nafar ko'krak bezi saratoniga chalingan bemorlardan 118 nafari qishloq ayollariga, 238 nafari shahar ayollariga to'g'ri kelyapdi. Ko'krak bezi saratoniga chalingan shahar ayollarining turmush tarsi o'rganilganida, bemorlarning aksariyati noto'g'ri va betartib ovqatlanishi ovqatlanish ratsioniga rioya qilmasliklari aniqlandi.

2-diagramma

Birinchi tashxis qo'yilgan bemorlar orasidan tibbiy ko'riklar davomida aniqlangan kasallik bosqichlari



2-diagrammada tibbiy kuzatuv uchun olingan 356 nafar ko'krak bezi saratoniga chalingan birinchi marta tashxis qo'yilgan bemorlar orasidan tibbiy ko'rik davomida 18 nafarida I-bosqichda, 258 nafarida II-bosqichda, 60 nafarida III-bosqichda, 20 nafarida IV-bosqichda aniqlanganligini ko'rish mumkin. Kasallik bosqichlari orasida bemorlarning 258 nafarida (kuzatuvdagi bemor ayollarning 74,5 % ida) kasallikning II-bosqichda birinchi marta ko'krak saratoni tashxisi qo'yilgan.

2020-yil oxirigacha ko'krak bezi saratoni bilan Farg'ona viloyati bo'yicha 2099 nafar bemorlar "D" nazoratida turgan. "D" nazoratida turgan bemorlardan 693 nafari qishloq aholisiga, 1406 nafari shahar aholisiga to'g'ri kelyapdi. Shahar aholisi o'rtasida bemorlar sonining ko'pligining sabablarini aniqlash maqsadida shaharda yashovchi ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan bemorlarning kasallik tarixlari o'rganilganida, bemorlarning aksariyati ko'p abort qildirgan, turmushidan ajrashgan va oilasi notinch ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Farg'ona viloyati bo'yicha 2020-yil boshidan ko'krak saratoni bilan "D" hisobda turgan bemorlar soni (shahar va tumanlar kesimida)

№	Ko'krak bezi saratoni	Jami	Shu jumladan	
			Qishloq.	Shahar
1.	Farg'ona shahar	221	0	221
2.	Qo'qon shahar	222	0	222
3.	Marg'ilon shahar	103	0	103
4.	Quvasoy shahar	71	34	37
5.	Oltiariq tumani	148	45	103
6.	Qo'shtepa tumani	105	35	70
7.	Bog'dod tumani	88	53	35
8.	Buvayda tumani	54	20	34
9.	Beshariq tumani	102	71	31
10.	Quva tumani	150	24	126




11.	Rishton tumani	130	62	68
12.	So'x tumani	23	15	8
13.	Toshloq tumani	83	24	59
14.	Uchko'prik tumani	118	89	29
15.	Dang'ara tumani	98	55	43
16.	O'zbekiston tumani	124	47	77
17.	Farg'ona tumani	150	50	100
18.	Yozyovon tumani	53	18	35
19.	Furqat tumani	56	51	5
	JAMI	2099	693	1406

Hududlar kesimida kasallanish epidemiologik tahlil qilinganida Qo'qon shaharda (222), Farg'ona shaharda (221), Quva tumanida (150), Oltiariq tumanida (148), Farg'ona tumanida (150), Rishton tumanida (130) yuqori ko'rsatkichlarda ekanligi aniqlandi (1-jadval).

3-diagramma


2015 yildan 2020 yilgacha "D" 5 nazoratda turgan bemorlar



3-diagrammada Farg'ona viloyati bo'yicha 2015 yildan 2020 yilgacha "D" 5 nazoratda turgan bemorlar jami 901 nafar bemor ayollarning hududlar kesimidagi ko'rsatkichlari keltirilgan.

4-diagramma

Farg'ona viloyatida 2020-yilda ko'krak bezi saratonidan vafot etganlar (yoshlar kesimida)



Yuqoridagi diagrammada Farg'ona viloyatida 2020-yilda ko'krak bezi saratonidan vafot etganlar soni yoshlar kesimida berilgan (4-diagramma). Ko'krak bezi saratonidan vafot etish 40-69 yoshli bemorlar o'rtasida yuqori ko'rsatkichda ekanligi diagrammada ko'rinib turibdi. 40-44 yoshli bemorlar o'rtasida – 14 ta, 45-49 yoshli bemorlar o'rtasida – 22 ta, 50-54 yoshli bemorlar o'rtasida – 29 ta, 60-64 yoshli bemorlar o'rtasida – 15 ta, 65-69 yoshli bemorlar o'rtasida – 11 ta o'lim holatlari kuzatilgan. Bunday ko'rsatkich menopauza davrining yosharib borayotganligi va bu yoshdagilarda tibbiy ko'riklardan o'z vaqtida o'tmaslik sababli kasallanish va o'lim juda yuqori. Vafot etganlar bemorlarning kasallik tarixlari o'rganilganda 80 % bemorlar shifokorga kech murojaat qilganligi aniqlandi.

Xulosa va tavsiyalar.

Erta bosqichda tashxis qo'yilgan ko'krak bezi saratoni qulay prognoz va yuqori tirik qolish darajasiga ega. Saratonning 1 va 2 bosqichlari uchun tirik qolish darajasi deyarli 100 foizni tashkil qiladi. Shuning uchun ko'krak bezi saratonini nazorat qilish bo'yicha Milliy (integratsiyalashgan) dasturni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bemorlarni xabardor qilish, skrining va davolashga yo'naltirish, shuningdek, skrining va saraton reestrini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

1. Ko'krak bezi saratonining skrining markazini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ko'krak bezi saratonini erda aniqlash va ko'krak bezi saratoni skriningini birlamchi tibbiy-sanitariya yordami: oilaviy poliklinika va markaziy ko'p tarmoqli poliklinikada tashkil etish kerak.
2. Maqsadli guruh ayollarini axborot bilan qo'llab-quvvatlash siyosatini ishlab chiqish, kasallik belgilari aniqlangan taqdirda yo'nalish tavsifi bilan saraton xatarlari haqida xabardorlikni oshirishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.
3. Ko'krak bezi saratoniga chalingan ayollarning ovqatlanishini korrektsiyalash orqali uning profilaktikasini takomillashtirish, bemor ayollar uchun ovqatlanish ratsionini tuzish.
4. Palliativ yordamni tashkil etish.
5. Majburiy tibbiy sug'urta paketiga saratonga shubha borligi uchun skrining va qo'shimcha tekshiruvni kiritish.



6. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan skrining dasturini o'tkazish uchun kadrlar tayyorlashni tashkil etish. Hamshiralar, oilaviy shifokorlar, akusher-ginekologlar, onkologlar, mammologlar, rentgenologlar, sitologlar va patologoanatomlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlariga ko'krak bezi saratoni milliy skrining dasturini kiritish.

7. Saraton kasalligi va o'lim darajasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish formati va yondashuvini o'zgartirish. Skrining dasturini baholash muayyan hududdagi o'lim darajasini baholashdan iborat bo'lishi kerak. Bundan tashqari, qo'llab-quvvatlovchi omillarni o'lchash kerak, masalan, skriningni o'zlashtirish foizi, saratonning kechki bosqichi aniqlanganligi va skriningdan diagnostika va davolashgacha bo'lgan vaqt.

Natijada, taklif etilayotgan dastur ayollarda ko'krak bezi saratonini erta aniqlashga yordam beradi (I-II bosqichlarda). O'z navbatida, bu saratonni jarrohlik yo'li bilan davolash imkonini beradi, tirik qolish imkoniyatini oshiradi.

References:

1. AMERICAN CANCER SOCIETY. Inflammatory Breast Cancer. Available online: <https://www.cancer.org/cancer/breast-cancer/about/types-of-breast-cancer/inflammatory-breast-cancer.html#references> (accessed on 14 December 2021).
2. Laudisio, D., Barrea, L., Muscogiuri, G., Annunziata, G., Colao, A., & Savastano, S. (2019). Breast cancer prevention in premenopausal women: Role of the Mediterranean diet and its components. *Nutr Res Rev*, 1, 1-14.
3. Burcu DENİZ GÜNEŞ, Nilüfer ACAR TEK. (2021). Meme Kanserinden Korunmada ve Meme Kanseri Tedavisinde Akdeniz Diyetinin Etkisi. *Adnan Menderes Üniversitesi Sağlık Bilimleri Fakültesi Dergisi* 2021: 5(2); 442-454.
4. *Psycho-Oncology*. 3rd ed. / Holland J.C., Breitbart W.C., Jacobsen P.B., et al. (eds.). Oxford; New York: Oxford University Press, 2015. 864 p. DOI:10.1093/med/9780199363315.001.0001
5. Парпиева, О. Р. (2023). КЪКРАК БЕЗИ САРАТОНИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. *Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities*, 11(3), 446-454.
6. Parpiyeva, O. (2023). "KO 'KRAK BEZI SARATONI BILAN KASALLANGAN AYOLLAR OVQATLANISHINI KORREKTSIYALASHNI ILMIY ASOSLASH" MAVZUSI BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(12), 168-177.
7. Normatova Sh.A., Parpiyeva O.R. //AYOLLARDA KO'KSARATON BEZI SARATONINI ERTA ANIQLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV// In actacamu: Vols. 2 2023 (Numbers 2181-4155, p. 116). 24-26 betlar
8. Normatova, S. A., & Parpiyeva, O. R. (2024). ASSESSMENT OF THE ROLE OF RISK FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF BREAST CANCER. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(21), 74-78.
9. Parpiyeva, O. R. (2023). THE IMPORTANCE OF THE NURSE'S ACTIVITY IN CARRYING OUT PATRONAGE OF ONCOLOGICAL PATIENTS. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(8), 53-56.



10. Rakhmanovna, P. O. (2022). Nutrition and diet in breast cancer. *Texas Journal of Medical Science*, 7, 27-30.
11. Parpieva, O. R., Muydinova, E., & Safarova, G. (2021). Breast cancer. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 482-485.